O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
BO‘KA TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 29 - dekabr 520-10-137-Q/22 Bo‘ka tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 23-maydagi 314-10-0-Q/22 sonli qarorini tumanda ijrosini ta’minlash to`g`risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini berish va arxitektura-qurlilish ishlarini amalga oshirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g`risida” 2019-yil 26-avgustdagi PQ-4427-son qarori, “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta`minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g`risida” 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g`risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2022-yil 14- fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalaga oshirish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” platformasi orqali ijaraga berishning minimal qiymatini belgilash hamda Xalq deputatlari Bo‘ka tuman Kengashining 2022-yil 8-oktabrdagi VI-61-89-10-137-K/22-son qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to'g`risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Kadirov), kadastr agentligi tuman bo'limi (A.Maxkamov) 2022-yil uchun tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagam bo'sh turgan yer maydonlarini “E-auksion” platformasi orqali ijara huquqi (0,01 gektar maydon uchun) yuzasidan ishlab chiqilgan minimal qiymat bo'yicha tavsiyalari ma`qullansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq uchastkasidan ijara huquqining har bir tuman uchun minimal qiymatini belgilashda yer soligi`ning yillik miqdori, yer uchastkasini ijara berish muddati, yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati va yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga oid xarajatlar tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi kabi mezonlar inobatga olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo'limi (B.Djo'rayev) yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ko'chmas mulk ob`yektlariga bo'lgan huquqlarni davlat reestiridan ko'chirma qiymati Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-iyuldagi 186-son qarori bilan tasdiqlangan Ko'chmas mulk ob`yektlarining davlat kadastri sohasida davlat xizmatlari qiymatini aniqlash tartibi bilan belgilanishini inobatga olsin.

4. Tumanlarda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagam bo'sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” platformasi orqali 0,01 gektar yer maydonini ijara huquqi bilan berishning minimal qiymati 1-ilovaga, “Kichik sanoat zona”lari va “Yoshlar tadbirkorlik va sanoat zona”larida bo'sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” elektron platformasi orqali 0,01 gektar yer maydonini ijara huquqi asosida berish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Kadirov) yer uchastkasidan ijara huquqining minimal qiymati tasdiqlangan sanadan e`tiboran 1 (bir) ish kuni mobaynida soliq organlari tomonidan “YERELEKTRON” AATga kiritilishini ta`minlasin.

6. Tuman qurilish bo'limi boshlig’i bosh arxitektor (D.Abduraximov), belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish maqsadida auksion savdolariga chiqarilishini ta`minlasin.

7. Kadastr agentligi tuman bo'limi (A.Maxkamov), tuman qurilish bo'limi boshlig’i bosh arxitektor (D.Abduraximov) tasarruf etilgan yer maydonlaridan maqsadli va samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoring olib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Kadirov), kadastr agentligi tuman bo’limi (A.Maxkamov) va tuman moliya bo'limi (M.Xakberdiyev) bo'sh yer maydoni

minimal qiymat bahosiga qat`iy rioya qilinishi hamda mahalliy byudjetga pul tushumlarini o'z vaqtida to'liq tushurilishini ta`minlasin.

9. Tuman hokimining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (R.Qosimov) mazkur qarorni tuman “Xalq ovozi” gazetasida va hokimlikning rasmiy veb-saytida e`lon qilinishini ta`minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o`rinbosari Y.Inoqov va tuman hokimining o'rinbosari X.Ashurov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **N.Abbosov**

Bo‘ka tuman hokimining
2022 yil 29 dekabrdagi
520-10-137-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyat Bo‘ka tumanida tadbirkorlik sub`yektlariga investitsiya kiritish va ijtimoiy majburiyat yuklash sharti bilan tadbirkorlik hamda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan bo`sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” elektron platformasi orqali

0,01 gektar yer maydonini ijara huquqi asosida

berishning MINIMAL QIYMATI

№	Shahar,tuman nomi	"MFY" nomi	0,01 gektar yer maydoni uchun bir yillik soliq summasi *(so`mda)*	Tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda qo`llaniladigan koeffisent			Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi *(Bazayiv hisoblash miqdorinig 2 baravari)*
				Yashil hududlar *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 30 barobari)*	**Sariq hududlar** *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 20 barobari)*	**Qizil hududlar** *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 10 barobari)*	
1.	Bo`ka tumani	"Achamayli Fayz Baraka"	206 724			2 067 240	578 000
2.	Bo`ka tumani	"Baxmal"	186 052			1 860 520	578 000
3.	Bo`ka tumani	"Beshkapa"	206 724			2 067 240	578 000
4.	Bo`ka tumani	"Bo`ka"	186 052			1 860 520	578 000
5.	Bo`ka tumani	"Bunyodkor"	248 068			2 480 680	578 000
6.	Bo`ka tumani	"Bo`ston"	186 052			1 860 520	578 000
7.	Bo`ka tumani	"Guliston"	206 724			2 067 240	578 000
8.	Bo`ka tumani	"Dashtobod"	186 052			1 860 520	578 000
9.	Bo`ka tumani	"Do`stlik"	248 068			2 480 680	578 000
10.	Bo`ka tumani	"Jagalbayli"	206 724			2 067 240	578 000
11.	Bo`ka tumani	"Jo`raobod"	186 052			1 860 520	578 000
12.	Bo`ka tumani	"Ibrat"	206 724			2 067 240	578 000
13.	Bo`ka tumani	"Istiqlol"	186 052			1 860 520	578 000
14.	Bo`ka tumani	"Katta Ravot"	186 052			1 860 520	578 000
15.	Bo`ka tumani	"Kiyikchi"	186 052			1 860 520	578 000
16.	Bo`ka tumani	"Qoraqduk"	206 724			2 067 240	578 000
17.	Bo`ka tumani	"Qoraqo`yli"	186 052			1 860 520	578 000
18.	Bo`ka tumani	"Ko`korol"	186 052			1 860 520	578 000
19.	Bo`ka tumani	"Quldiroq"	206 724			2 067 240	578 000

20.	Bo`ka tumani	“Qo`ldoshtepa”	206 724			2 067 240	578 000
21.	Bo`ka tumani	“Qo`chqor so`ygan”	206 724			2 067 240	578 000
22.	Bo`ka tumani	“Qo`shtepa”	206 724			2 067 240	578 000
23.	Bo`ka tumani	“Madaniyat”	248 068			2 480 680	578 000
24.	Bo`ka tumani	“Mirzabek”	186 052			1 860 520	578 000
25.	Bo`ka tumani	“Navro`z”	248 068			2 480 680	578 000
26.	Bo`ka tumani	“Novobod”	186 052			1 860 520	578 000

27.	Bo`ka tumani	“Oltish”	186 052			1 860 520	578 000
28.	Bo`ka tumani	“Parkent tumani”	206 724			2 067 240	578 000
29.	Bo`ka tumani	“Ramadon”	206 724			2 067 240	578 000
30.	Bo`ka tumani	“Rovot”	186 052			1 860 520	578 000
31.	Bo`ka tumani	“Samarqand”	186 052			1 860 520	578 000
32.	Bo`ka tumani	“Toshloq”	248 068			2 480 680	578 000
33.	Bo`ka tumani	“O`zbek”	248 068			2 480 680	578 000
34.	Bo`ka tumani	“O`rta tepa”	186 052			1 860 520	578 000
35.	Bo`ka tumani	“Xo`jaqo`rg`on”	206 724			2 067 240	578 000
36.	Bo`ka tumani	“Chavlisoy”	186 052			1 860 520	578 000
37.	Bo`ka tumani	“Cho`lobod”	186 052			1 860 520	578 000
38.	Bo`ka tumani	“Yangiqo`rg`on”	186 052			1 860 520	578 000
39.	Bo`ka tumani	“Yangihayot”	248 068			2 480 680	578 000
40.	Bo`ka tumani	“Yangibog`”	186 052			1 860 520	578 000
41.	Bo`ka tumani	“Yangiobod”	206 724			2 067 240	578 000

Bo‘ka tuman hokimining
2022 yil 29 dekabrdagi
520-10-137-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida joylashgan “Kichik sanoat zona”lari va “Yoshlar tadbirkorlik va sanoat zona”larida bo`sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” elektron platformasi orqali

0,01 gektar yer maydonini ijara huquqi asosida berishning MINIMAL QIYMATI

№	Shahar,tuman nomi	0,01 gektar yer maydoni uchun bir yillik soliq summasi *(so`mda)*	Tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda qo`llaniladigan koeffisent			Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi *(Bazayiv hisoblash miqdorinig 2 baravari)*
			Yashil hududlar *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 3 barobari)*	Sariq hududlar *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 2 barobari)*	Qizil hududlar *(0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq summasining 1 barobari)*	
1.	Bo`ka tumani	206 724			206 724	578 000